

Ochildiyev F.B.

TARIXIY O'LKASHUNOSLIK



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI

Ochildiyev F.B.

TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK

(o‘quv qo‘llanma)

5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar)

5120400 – Arxeologiya

5121300 – Tarix va ekskursiya-o‘lkashunoslik ishi

TOSHKENT
«DONISHMAND ZIYOSI»
2020

UO'K 908(075)

KBK 63.3

O 95

Mas'ul muharrir:

A.S. Sagdullayev, tarix fanlari doktori, akademik.

Taqrizchi:

R.X. Suleymanov, tarix fanlari doktori, professor;

O'.M. Mavlanov, tarix fanlari doktori, professor.

Ochildiyev F.B.

O 95 Tarixiy o'lkashunoslik [Matn]: o'quv qo'llanma / F.B. Ochildiyev. – Toshkent. «Donishmand ziyosi» MCHJ, 2020. – 200 b.

ISBN 978-9943-6446-6-3

Mazkur qo'llanmada tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsad va vazifalari, yosh avlodni tarbiyalashda tarixiy o'lkashunoslik fanining o'rnini, o'lkamiz tarixiy geografiyasi va tarixiy jarayonlar haqida ma'lumot keltirilgan.

Tarixiy o'lkashunoslikni o'rganishda arxeologiya, etnografiya, antropologiya, toponimika, yozma va arxiv manbalarning o'rnini kabi mavzular qamrab olingan. Ushbu qo'llanma tarix, arxeologiya, tarix va ekskursiya-o'lkashunoslik ishi yo'nalishlari bakalavr talabalari uchun mo'ljallangan.

UO'K 908(075)

KBK 63.3

ISBN 978-9943-6446-6-3

© Ochildiyev F.B., 2020

© «Donishmand ziyosi» MCHJ, 2020



MUQADDIMA

Tarixiy o'lkashunoslik – o'z ona yurti hisoblangan muayyan o'lka, viloyat, shahar, tuman va qishloq hududlarini har tomonlama o'rganishni taqozo etadi. Tarixiy o'lkashunoslikda o'lkaning tabiati, aholisi, xo'jaligi, tarixi, madaniyati, arxeologiyasi, o'lka namoyandalari va boshqa jihatlari o'rganiladi. O'lkashunoslik kompleks va soha o'lkashunoslikka bo'linadi. Kompleks o'lkashunoslik turli sohalarni bir-biri bilan bog'liq holda, soha o'lkashunoslik geografiya, tarix, etnografiya, madaniyat, toponimika va boshqa sohalarga oid masalalarni alohida o'rganadi. Hozirgi kunda ekologik vaziyat va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish masalalarini ham o'rganadi.

Tarixiy o'lkashunoslikning asosiy maqsadi o'z o'lkasi tarixi, aholisi, etnografiyasi, xo'jaligi, madaniyati, tabiati va boshqalarni ashyoviy dalillar asosida o'rganib, to'plangan ma'lumotlarni ommalashtirib, yoshlarning bilimi va dunyoqarashini kengaytirishdan iborat. Tarixiy o'lkashunoslik ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, o'quv-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ayniqsa, yoshlarning milliy qadriyatlarimizni o'rganishi va uni ommalashtirishda tarixiy o'lkashunoslikning o'rnini muhim sanaladi.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda yuz berayotgan tub iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar tarixni chuqur, xolisona tarzda hamda yangicha tafakkur asosida ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda. O'zbekiston xalqlari tarixi, madaniy hayotning rivojlanishi, shaharlar tarixi tarixiy o'lkashunoslik bilan uzviy bog'liqdir. So'nggi yillarda turli shaharlarning yubileylari munosabati bilan o'tkazilayotgan anjumanlar, ilmiy tadqiqotlar o'lkamizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi katta ekanligini ko'rsatmoqda.

I BOB. O'LKASHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Reja:

1. Tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsad va vazifalari.
2. Tarixiy o'lkashunoslik fanining manbalari.
3. Tarixiy o'lkashunoslikning shakllanishiga doir dastlabki ma'lumotlar.
4. Tarixiy o'lkashunoslikning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi tarixidan.

Tayanch iboralar: Avesto, yunon, rim, fors, manba, tarixiy, o'lka, antik, ilk o'rta asr, Turon, Turonsaksoniya, Movarounnahr, Turkiston, O'rta Osiyo, Rossiya, imperiya, Yevropa, shakllanish, rivojlanish.

1. Tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsad va vazifalari

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'lkamizda barcha sohalarda o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, o'lkamizning o'tmishi, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, etnik tarixi, moddiy madaniyat yodgorliklarini ilmiy va amaliy jihatdan xolisona o'rganishga imkon yaratildi. «Tarixiy o'lkashunoslik» quyidagi turlarga bo'linadi:

- ilmiy, ya'ni davlat o'lkashunosligi;
- jamoat o'lkashunosligi;
- maktab o'lkashunosligi.

O'lkashunoslikning har uchala turi bir-biriga aloqador bo'lib, birinchisi ikkinchisini to'ldirib boradi. *Davlat o'lkashunosligi* bilan respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarini muhofaza qilish hamda ularidan foydalanish qo'mitasi, respublika FA tarix, arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutlari, muzeylar shug'ullanadi.